



TIL IMPLISITLIK MANBAI SIFATIDA

Jonridova Sanobar Sherali qizi

*Qo‘qon pedagogika instituti
2-bosqich tayanch doktoranti.*

ANNOTATSIYA Maqolada tilning yashirinlik xususiyati, axborot ifodalashning eksplitsit va implitsit usullari qiyosiy tatbiq etilgan. Ularning o‘ziga xos maqsad va vazifalari tahlil etiladi, shu asosda bu usullarning o‘zaro farqli jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: til, pragmalingsvistika, eksplikatsiya, implikatsiya, kommunikatsiya, bilvosita, bevosita.

Kirish. Tilshunoslikda antroposentrik yondashuv doirasida yangi ilmiy paradigmaning shakllanishi tadqiqotchilarda nutq aloqasi muammolariga katta qiziqish uyg‘otdi. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat axborotlar rasmiy ravishda ifodalanmagan, ammo hali ham mavjud bo‘lgan elementlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlarni bilvosita aloqa doirasida ko‘rib chiqish mumkin. N.D.Arutyunovanning yozishicha, inson til ifoda eta oladiganidan ko‘proq narsani idrok etadi.

Maqolada ma’lumotni aniq ifodalash va implisitlikni nutq harakati turlaridan biri sifatidagi tavsifi, shu asosda ushbu tadqiqot maqsadlariga javob beradigan nazariyalar shakllantirilishiga e’tibor qaratilgan. Barchamizga ma’lumki, til olamni bilish vositasi hisoblanadi. Til kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi uchun yordam beradigan eng muhim aloqa quroli bo‘lib, uning amaliy ahamiyati ham shu tildan foydalanayotgan kommunikantlar hayotida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy kommunikatsiya insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o‘zaro “axborot – ma’no hamkorligi” sifatidagi talqinidir¹²⁴. Bundan ko‘rinib turibdiki, kommunikatsiya jarayonida semiotik belgilar asosiy rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. Insonlar til vositasida o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalashi bilan bir qatorda, so‘zlovchi nutqida lisoniy bilim zahirasi bilan foydalanish qobiliyati, tafakkuri, milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, va ruhiy olami ifodalanadi. Til nafaqat fikrni ifodalash, balki ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladigan quroldir. Til tufayli inson tafakkuri boyib, murakkablashib boradi. “Lisoniy faoliyat hodisasining mohiyati – uning ijrochisi – shaxs va ushbu shaxsning ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi.”¹²⁵ Nutqiy faoliyat jaronida kommunikantlar axborot uzatish, qabul qilish, tahlil

¹²⁴Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008 –Б.54.

¹²⁵Сафаров Ш. Уша манба Б.5.

qilishi mumkin. Tafakkurning moddiy qobig‘i hisoblangan – til muloqot jarayonida kommunikativ va bilish vositasi vasifasini bajaradi. “Til kommunikativ sistema sifatida reallashadi. Kommunikativ jarayon esa so‘zlovchi va tinglovchi birligini talab etadi. Nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi kommunikatsiyaning to‘liq bo‘lishi uchun so‘zlovchi nutqiy tuzilishdagi mazmunni tinglovchiga aniq va to‘liq yetkazish imkonini izlaydi. Tilga so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan, shunchaki tinglovchi emas, unga nima gapirilayotganini to‘g‘ri anglovchi tomonidan yondashish.”¹²⁶ Shu bilan birga kommunikatlarning bilim darajasi, lug‘at boyligi ham hisobga olinishi kerak. Inson tilining eng sirli xususiyatlaridan biri uning yopiqqligi deb hisoblash mumkin, ya‘ni yashirin ifodalanmagan ma‘lumotlarni yetkazish uchun xizmat qiladigan obyektidir. Shu jarayon bilan bog‘liq tilning amaliy ahamiyatini tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik fani uchun juda muhimdir. Chunki axborotga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib borayotgan XXI asrda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni, ahamiyati masalasiga yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Bu yondashuvlar markazida til insonlarning nutqiy muloqot jarayonini shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Harakatdagi nutq jarayonini tadqiq etish pragmlingvistika kabi yangi tarmoqlar uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. Pragmlingvistikadagi aniqlik nutq aktini ijro nutqi orqali ifodalash vositasi sifatida I.I.Chesnokov asarlarida tasvirlangan. Tilshunos rus tili materiallaridan foydalangan holda, ma‘lum nutq taktikasini ifodalashning emotsional shakllarini konsentratsiyasi mahsuloti maqomiga ega bo‘lgan aniq ijro etuvchilarini tizimlashtiradi va tasniflaydi. Bunda yomonlik tilashning aniq vositalari pragmlingvistika nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilinadi. G.K.Xamzina nominativ gap semantikasining aniq va yashirin komponentlari o‘rtasidagi munosabatni ko‘rib chiqib, lingvistik unversalliklarga aniqlik va implisitlikni bog‘laydi, shu bilan birga ham noaniqlik, ham aniqlik haqidagi nazariy tushunchaning yetarli darajada rivojlanmaganlini ta‘kidlaydi. V.I.Kazarin so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘yicha ifodani aniq ifodalash usuli sifatida tasniflaydi. Aniqlik – lingvistik belgilarning bevosita, aniq ifodilangan ma‘nosi, nutqda bevosita amalga oshirishdan iborat. Axborot uzatishning turli usullari orasida xabarni uzatishning yashirin usullari alohida ahamiyatga ega. Implisit usul yashirin ifoda hisoblanib, mavjud axborot boshqa grammatik vositalar orqali hosil qilinadi. Tabiiy tilda ko‘pgina implikativ bog‘lanishlar bevosita ifodalanmaydi, balki izohlash jarayonida hosil bo‘ladi. Implikatsiya aniq morfologik jihatdan shakllanmaydigan so‘zlar yoki iboralarning semantik va sintaktik xususiyatlari, lekin axborotni tushunish uchun zarurdir.¹²⁷ Implisit ifodani qisqa qilib aytganda, “shaklan yig‘iq, mazmunan yoyiq”¹²⁸ ifodaga aytiladi. Implisitlik lingvistik me‘yorlardan chetga chiqish, so‘zlarning noodatiy qo‘llanilishi, shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu birinchi navbatda so‘zlovchining nutq niyati bilan bog‘liq.

¹²⁶ Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. Издательство Московского университета 1976. М., 1976. С33.

¹²⁷ Yarseva V.N. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: 1990. – S.458

¹²⁸ Toirova G. Pragmlingvistika o‘quv lug‘ati. Toshkent. Akadem nashr, 2016, 13-bet

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning metodologik asosini antroposentrik paradigma ostida vujudga kelgan, yangi soha hisoblangan pragmalingvistikaning o‘rganish obyekti implikasiya va unga zid tarzda eksplikatsiya haqidagi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, zidlash, qiyoslash kabi tahlil usullaridan foydalanilgan. Har qanday axborotni uzatish ikki xil yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchisi, eksplitsit yo‘l hisoblansa, ikkinchi usul esa implitsit yo‘l hisoblanadi. Eksplikatsiya – (lot. aniqlashtirish, tushuntirish) har doim tildagi tushuncha va gaplarni ramziy, mantiq yordamida oydinlashtirishdir.¹²⁹ O‘ziga xos, to‘liq va aniq to‘g‘ridan to‘g‘ri og‘zaki ifodaga ega bo‘lgan, til belgilarining yig‘indisi bilan bevosita ifodalangan mazmun hisoblanadi. K.A.Dolinin yozganidek, matnning ma‘nosi yoki aniq mazmuni axborotni hosil qiluvchi lingvistik belgilar to‘plami bilan bevosita ifodalangan tarkibdir. Eksplitsit mazmun – oddiy matnda aytilgan fikr.¹³⁰ Gapning mazmuni odatda nominativ va kommunikativ kabi turlarga bo‘linadi. Axborotning nominativ mazmuni aniq, kommunikativ mazmuni esa yashirin bo‘lishga intiladi. Aniq bayonotni qabul qilganda tinglovchining miyasida ketma-ket barcha assotsiatsiyalar faollashtirilmaydi, balki qabul qiluvchining o‘z manfaatlari doirasida bo‘lganlari faollashadi. Biz faqat kerakli masalalarda gaplashamiz. Lekin fan tilidagi matnlar har doim aniq bo‘lishi, hech qanday noaniqlik va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.¹³¹ Chunki ilmiy uslubning xususiyati ham shundan iborat bo‘lib, ma‘lum fan doirasidagi ilmiy qarashlar aniq tushuntirilishi kerak. Hozirgi tilshunoslikda lisoniy birliklarning turli ma‘nolarining aniqligini o‘rganishga ilmiy qiziqish mavjud. Tadqiqotlarda qoida tariqasida aniqlik yashirinlik bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. N.G.Bragina aniqlikni tildagi ma‘nolarning aniq ifodasi deb hisoblab, konseptual so‘zlarning semantik makonining tarixiy taraqqiyot jarayonida diskret bo‘lib qolmasligini ta’kidlaydi. Semantik kvantlar yo‘qolmaydi, balki o‘zgaradi. V.Gladrov tomonidan turli lisoniy aspektlarda ham ochiq, ham yashirin tarzda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan xushmuomalalik toifalari materiallaridan foydalangan holda qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Eksplitsit ifoda aniq ifodalangan tashqi moddiy ifodaga ega bo‘lgan ma‘nolarni anglatadi. Ma‘no ifodalashning aniq va noaniqligi o‘rtasidagi munosabat tilning mazmuni va formal tekisliklari, nutqni tashkil etishning lingvistik birliklarining semantik tuzilishi o‘rtasidagi munosabatlarning muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Aniqlik va yashirinlik axborotning so‘zlashuv darajasi sifatida tilda turli xil namoyon bo‘lish usullariga ega.

Implikasiya (lot–o‘zaro to‘qnashuv, mahkam bog‘layman) “agar...keyin...” grammatik qurilishiga mos keladigan mantiqiy bog‘lanishdir. “Implikativ bayonot mantiq tilida oddiy tilning shartli bayonotini ifodalaydi. Sintaktik strukturada aniq ifodalanmagan, ammo dastlabki bilimlar asosida axborotning tasdiqlovchi qismidan kelib chiqadigan (deduktiv) yoki ehtimollik (induktiv) bo‘lgan hukm.”¹³² Mantiqiy bog‘lanish orqali ikki sodda gapdan murakkab mazmun

¹²⁹ <http://wikilug.at>.

¹³⁰ Долинин, К.А. Интерпретация текста [Текст]: учеб. пособие К.А. Долинин. – 4-е изд. – М.: КомКнига, 2010. – 304с

¹³¹ Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Госиздат УзССР. 1993. – 182 с.; Рождественский Ю.В. Типология слова / Ю.В.Рождественский. – М.: Высшая школа 1968, 296

¹³² ВОДОВАТОВА Т.Е. НЕ ИНФОРМАТИВНЫЕ И ВЫСОКО ИНФОРМАТИВНЫЕ ВЫСКАЗЫВАНИЯ:

hosil qiluvchi mantiqiy operatsiya.¹³³ K.A.Dolinin yozishicha, implikatsiya nafaqat hodisalar o‘rtasidagi doimiy aloqalarga, balki faqat ma’lum bir faoliyat sharoitida yuzaga keladigan bog‘lanishlarga asoslanishi mumkin. Bundan tashqari, matndagi har qanday bo‘shliqni implikatsiyaga bog‘lashingiz mumkin. Matnning yonma-yon joylashgan birliklarining munosabatidan kelib chiqadigan qo‘shimcha nazarda tutilgan ma’no matnli implikatsiya deb tushuniladi. Yoki implikatsiya matn birliklari orasidagi chiziqli bo‘lmagan aloqalar orqali amalga oshiriladigan qo‘shimcha semantik yoki hissiy mazmun sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.¹³⁴ Matn tuzilishida hukmlar orasidagi implikatsiya yoki implikativ munosabatlar aniq yoki yashirin bo‘lishi mumkin. Implikatsiya va uning tarkibiy qismlari aniq ifodalanganda, ya’ni og‘zaki yoki aniq mantiqiy shaklda taqdim etilganda aniq bo‘ladi. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosa chiqarish shaklida yoki bilvosita kontekst, mantiqiy aloqalar yoki qo‘shimcha tushuntirishlar orqali sodir bo‘lishi mumkin. Agar uning qismlaridan biri aniq lingvistik shaklda bo‘lmasa, lekin kontekstda nazarda tutilgan bo‘lsa, implikatsiya yashirin bo‘ladi. Masalan, siz qanday do‘stsiz? (Istehzoli dedi) Ma’nosi: haqiqiy do‘st bunday qilmaydi. Tabiiy tilda ko‘pincha bir gap boshqasini nazarda tutadi, lekin aloqani aniq ifodalamaydi. Gapni tashkil etuvchi lingvistik belgilarda bevosita ifodalanmaydigan, balki undan qandaydir tarzda olingan ma’lumotlarning o‘sha qismi odatda yashirin mazmun yoki tagma’no sifatida taqdim etiladi. Agar berilgan axborotning yashirin mazmuni adresatga tegishli bo‘lmasa, ongli ravishda idrok etish mumkin emas.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda axborotning lisoniy belgilar orqali bevosita ifodalanishi fikrning eksplitsit ifodasi, fikrning leksik, grammatik belgilar orqali visual ifodalanmagan, ammo tinglovchi yoki o‘quvchi tomonidan mustaqil idrok qilinishi ko‘zda tutuvchi ma’nosi implitsit ifodalanagan ma’nosi deya talqin etilishi barcha tilshunoslar tomonidan tan olingan yagona ta’rifdir.¹³⁵ Ostin fikriga ko‘ra esa, fikr ifodalashning ochiq (eksplitsit) va yashirin (implitsit) ko‘rinishlari: illokutiv kuchlar, so‘zlashuv taktikasi, xarakteri, ifodaning pragmatik mazmuni (ko‘chma ma’nolar, ishoralar, istioralar, shamalar,) adresatga ta’siri kabi lingvistik pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. V.I.Moroz aqliy harakatni aysbergga taqqoslab, eksplitsit ifodani “sirt” qismiga, implitsit ifodani esa “suv osti” deya ta’rif keltiradi.¹³⁶ Yopiq qismi aniq mavjud, lekin u sirtda emas, balki til tubida quyi, yashirin tarkib qatlam sifatida aks etadi. Mavjud axborotni sirti, ya’ni eksplitsit ma’no deb olsak, yashirin, ifodalanmagan ma’noni esa implitsit ma’no sifatida tahlil qilamiz. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, eksplitsit va implitsit usul fikr ifodalashning qaysidir ma’noda qarama-qarshi ikki shaklidir. V.X.Bagdasaryan yozganidek, lingvistik birliklar emas, faqat fikrlar aniq va

ДВА ПОЛЮСА КОММУНИКАЦИИ / Междунар. ин-т рынка. – Самара, 2012. – 260 с. – Библиогр.: с. 216–258.

¹³³ Захаренко Е.Н., Комарова Л.Н., Нечаева И.В. Новый словарь иностранных слов: толкование, этимология, примеры употребления. М.: Азбуковник, 2003. URL: <https://www.slovari.ru/default.aspx?p=232>).

¹³⁴ K.A.Dolinin 2009, 176

¹³⁵ Долинин, К. А. Имплицитное содержание высказывания Текст. / К. А. Долинин // Вопросы языкознания. 1983. - № 6. - С. 1983. 37-bet

¹³⁶ Багдасарян В.Х. Проблема имплицитного. – Ереван изд-во АН Арм ССР, 1983.

yashirin bo‘lishi mumkin. Demak, tafakkur va til o‘rtasidagi munosabat masalasining muhim jihati sifatida aniq va yashirin savol paydo bo‘ladi. Yashirin mazmun haqiqatda mavjud, lekin u sirtida emas, balki tilning tubida mazmunning pastki, yashirin qatlami sifatida yuzaga keladi. Axborotda uning asl mohiyati aks ettiriladi, ammo uning keyingi maqsadi yashirin inferensial ma’lumotni yetkazish, yakuniy maqsadi esa qabul qiluvchiga u yoki bu ta’sirdan iborat. Gapning maqsadlilik uning yashirin mazmuniga, tagma’noga tegishlidir. Bu odatda bayonot aloqa, tahdid, ogohlantirish, eslatish kuchiga ega bo‘lganda sodir bo‘ladi. Yashirin ma’lumotlarning samaradorligi uni anglab yetishdagi qiyinchilikka, adresat uni olish uchun qo‘shimcha intellektual kuch sarflaganiga asoslanadi. Inson mashaqqatli mehnat orqali oladigan narsa uning uchun”kumush laganda taqdim etilgan” narsadan ko‘ra, sof psixologik jihatdan muhimroqdir.¹³⁷ Tinglovchi axborotning yashirin mazmuni uchun materialni o‘z tezaurusidan oladi. Batafsil xabarni izchil idrok etish, tabiiyki, unda mujassamlangan faoliyat holatini bilishni nazarda tutadi. Inson tilining eng sirli xususiyatlaridan biri uning yashirinligi deb hisoblash mumkin, ya’ni aniq ifodalanmagan yoki yashiringan ma’lumotlarni yetkazish qobiliyati. Tildagi noaniqlik ekstralingvistik tarkibni aks ettirishning iqtisodiy usuli sifatida qaraladi, bunda vaziyat elementlari o‘rtasidagi kuchli assotsiativ bog‘liqlik natijasida barcha vaziyatni ifodalash uchun elementlardan faqat bittasi yetarli bo‘ladi. Ma’lum bir semantik to‘liqlik har qanday axborotga xosdir, chunki uning orqasida uning kommunikativ ma’nosini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan taxminlar tizimi mavjud.

Xulosa. Demak, bilvosita ya’ni implikativ munosabat deganda nutq aktini ifodalashning shunday usuli tushuniladiki, bunda ma’no maxsus lingvistik vositalar bilan yetkazilmaydi, balki o‘rganilayotgan sintaktik konstruktsiya tarkibiga kiruvchi aniq til birliklarining ma’nolari munosabatidan idrok etish jarayonida ajratib olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,.2008 –Б.54.

2. Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. Издательство Московского университета 1976. М., 1976. С33.

4. Yarseva V.N. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – М.: 1990. – S.458

5. Toirova G. Pragmalingvistika o‘quv lug‘ati. Toshkent. Akadem nashr. 2016, 13-bet

6. Долинин, К.А. Интерпретация текста [Текст]: учеб. пособие К.А. Долинин. – 4-е изд. – М.: КомКнига, 2010. –304с.

7. Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Госиздат УзССР. 1993. – 182 с.; Рождественский Ю.В. Типология слова / Ю.В.Рождественский. – М.: Высшая школа 1968, 296

8.ВОДОВАТОВА,Т.Е. НЕИНФОРМАТИВНЫЕ И ВЫСОКО ИНФОРМАТИВНЫЕ

¹³⁷ Ломов А.М. О способах выражения волеизъявления в русском языке // РЯШ, 1977, №2.

ВЫСКАЗЫВАНИЯ: ДВА ПОЛЮСА КОММУНИКАЦИИ / Междунар. ин-т рынка. – Самара, 2012. – 260 с. – Библиогр.: с. 216–258.

9. Захаренко Е.Н., Комарова Л.Н., Нечаева И.В. Новый словарь иностранных слов: толкование, этимология, при-меры употребления. М.: Азбуковник, 2003. URL: <https://www.slovari.ru/default.aspx?p=232>). 11. Долинин, К. А. ИмPLICITное содержание высказывания Текст. / К. А. Долинин // Вопросы языкознания. 1983. - № 6. - С. 1983. 37-bet

12. Багдасарян В.Х. Проблема имPLICITного. – Ереван изд-во АН Арм ССР, 1983.

13. Ломов А.М. О способах выражения волеизъявления в русском языке // РЯШ, 1977, №2.

14. <http://wikilug'at>.